

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDAGI ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL LEKSIK SEMANTIK MORFOLOGIK TADQIQI

Qarshiyeva Gulbahor Shamil qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

Boshlang'ich ta'lim yo'naliishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darliklarida antroponimlar qo'llanilishining ahamiyati, antroponimlarning funksional, leksik-semantik va morfologik jihatdan tahlili tilshunoslik, onomastika va ta'lim metodikasi nuqtayi nazaridan tahlilii, antroponimlarning o'quvchilar nutqi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan

Kalit so'zlar: antroponimlar, kompetensiya, onomastika, leksik-semantik tahlil, morfologik tahlil

Antroponim (antropo ... va yun. opuma nom) onomastikaning bo'limi. Odamlar ismini, ularning tarqalgani, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanishini va bundan tashqari antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi. Atoqli oturlari, taxallus, laqab, nisba va shax-sni atashlikning turli usullari ham A. tadqiqot manbaidir. Mas, Sohibqiron Amir Temur Tarag'ay Bahodir Ko'ragoniy. Bunda faqat Temur shaxsning xos ismi, Amir — hukmdorlik darajasini an-glatadi, Sohibqiron — Temurga zamon-doshlari tomonidan berilgan sifat (asr, davr sohibi degan ma'noni bildiradi), Tarag'ay — otasining ismi (familiya hisoblanadi), Bahodir — otasining laqabi, Ko'ragon — xonga kuyovlik nisbasi. Dunyodagi turli xalqlarda turlicha antroponimik tizim mavjud bo'lgan.

Boshlang'ich sinflarda antroponimlarning (shaxs nomlari) qo'llanilishi tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pedagogika nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayon o‘quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi antroponimlarning (shaxs nomlarining) funksional, leksik-semantik va morfologik jihatdan tahlili tilshunoslik, onomastika va ta’lim metodikasi nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Antroponimlarning funksional tahlili

Boshlang‘ich sinf darsliklarida shaxs nomlari quyidagi asosiy funksiyalarda ishlataladi:

- ❖ Identifikatsiya funksiyasi: Shaxslarni nomlash, ularning individualligini ifodalash.
- ❖ Estetik-funksional yuklama: Matnlarning badiiy ta’sirini oshirish, qahramonlar xarakterini ochib berish.
- ❖ Didaktik funksiyalar: O‘quvchilarga milliy an'analar, tarbiya, axloqiy qadriyatlarni singdirish.
- ❖ Pragmatik funksiya: Matnda ma'lum bir kommunikativ maqsadga xizmat qilishi (masalan, nutqiy ta’sir o’tkazish).

2. Antroponimlarning leksik-semantik tahlili

Boshlang‘ich sinf darsliklarida uchraydigan shaxs nomlari ma’no jihatdan turlicha talqin qilinadi:

- Etnomarkirlangan antroponimlar: Milliy xususiyatni aks ettiruvchi ismlar (O‘zbek ismlari: Bobur, Nodira, Oybek).
- Tarixiy shaxslar nomlari: Tarbiyaviy va motivatsion maqsadda ishlataladigan ismlar (Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur).
- Badiiy qahramonlarning ismlari: Adabiy obrazlarni shakllantirish uchun (Toshbolta, Anor, Odil).

- Universal ismlar: Har qanday madaniyat uchun mos keladigan, keng tarqalgan ismlar (Ali, Hasan, Zaynab).

3. Antroponimlarning morfologik tahlili

Shaxs nomlari tarkibiy tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- ◆ Oddiy shakldagi ismlar: Bir komponentli (Ali, Lola, Jasur).
- ◆ Murakkab shakldagi ismlar: Ikki va undan ortiq komponentdan tashkil topgan ismlar (Tohirjon, Otabek, Gulsanam).
- ◆ Affiksatsiya yo‘li bilan yasalgan ismlar: Suffikslar yoki prefikslar orqali (bek, -jon, -xon qo‘shimchalari bilan: Ulug‘bek, Gulbahor, Anvarjon).

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Oliy ta’limda faol va interaktiv ta’lim texnologiyalari (darsslarni o‘tkazish shakllari): darslik / komp. T.G.Muxin.-Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.-97 p.
2. Gushchin Yu.V. Oliy ta’limda interfaol o‘qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No 2. - B. 1-18..
- 3 Olimov S.S. THE INNOVATION PROCESS IS A PRIORITY IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SCIENCES. – 2021.
- 4 Hamroyev A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish : Monografiya
- 5 www.ziyonet.uz